



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

UlugʻBekova Gulruh

Nukus davlat pedagogika instituti, Oʻzbek tili va adabiyoti taʼlim
yoʻnalishi talabasi

NAZAR ESHONQUL IJODIDA REALISTIK TASVIR VA FALSAFIY-PSIXOLOGIK TALQIN

Annotatsiya

Mazkur maqolada Nazar Eshonqul asarlarida ijodiy individuallik, badiiy mahorat, shakliy-uslubiy izlanishlar hamda ramziy-majoziy tasvirning oʻziga xosligi kabi masalalar “Goʻroʻgʻli” romani misolida nazariy va badiiy tahlil qilinadi.

Tayanch soʻzlar: individuallik, badiiy ifoda, obrazlilik, badiiy tafakkur, falsafiy talqin.

Kirish (Introduction). Nazar Eshonqul ijodiga badiiy psixologizm-tuygʻular realizmi tahlili nuqtai nazaridan qaraydigan va oʻrganadigan boʻlsak unda hayotni, insonni tuygʻular tarhi, kechinmalar dinamikasi orqali badiiy tadqiq etish madaniyatining oʻziga xosligini kuzatish mumkin. Adib asarlarida koʻproq oʻtgan asrning beʼmani gʻoyalari, adolatsizlik, shafqatsizlik, zoʻravonlik asosiga qurilgan va halokatga yuz tutgan totalitar tuzum mafkurasining dahshatli manzaralari badiiy talqin etiladi. Shu maʼnoda bugungi oʻzbek nasrida N.Eshonqul ijodining oʻrni kattadir. Adib koʻplab asarlarida oʻsha manisiz oʻtgan yillar va inson umri haqida asosli chizgilar yaratganki, bu hech bir oʻquvchini eʼtiborsiz qoldirmaydi. Xususan, “Maymun yetaklagan odam” hikoyasidan tortib, “Goʻroʻgʻli” romanigacha barcha asarlarida individual xususiyatlar oʻz aksini topadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Istiqloq davri oʻzbek adabiyoti xususan, nasrining turli qirralari, badiiy psixologizm, hayotni poetik talqin etish mahorati, badiiy xususiyatlari, uslubiy izlanishlar, modernistik talqin imkoniyatlari kabi masalalar haqida adabiyotshunosligimizda monografik tadqiqotlar va yirik ilmiy maqolalar yaratildi.

Qolaversa, bugungi o'zbek nasrida N.Eshonqul ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda mazkur maqolada yozuvchining ijodiy individualligi haqida fikr yuritishni lozim topdik. Zero, adib asarlari o'zining shakl va mazmun mutanosibligi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan doimo adabiy jamoatchilikni o'ziga jalb etib kelmoqda. Natijada adib asarlari xususida monografik tadqiqotlarda, ilmiy-nazariy maqolalarda atroflicha fikr-mulohazalar bildirildi va ijodkor asarlarniing g'oyaviy-mavzuviy o'ziga xosligi, badiiy idrok va ifoda prinsiplari, ijodkorning badiiy mahorati masalalari atroflicha tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Istiqloq davri adabiyoti har jihatdan yangilanish jarayonini boshdan kechirib, unda badiiy kashfiyot darajasidagi asarlar yaratildi. Ularda qahramonlar oldinlari biz o'rganib qolganimizdek, hayotning hamma jabhalarida faol, doimo boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatiladigan emas, balki o'zlarining ruhiy dunyosi, falsafiy-psixologik talqini orqali kitobxonlarni o'ziga jalb qilmoqda. Zero, har bir davr badiiy adabiyot uchun yangi mavzu va yangi qahramon, yangicha badiiy ifodaga ehtiyojni vujudga keltiradi.

N.Eshonqulning "Go'ro'g'li" romanida XX asrning ma'naviy fojialari aks ettirilgan. Roman qahramoni N. taqdiri orqali mavjud muhit tug'dirgan fojidan chiqib ketish yo'llarini izlaydi. Adabiyotshunosligimizda mazkur asarning yaratilishida F.Kafka, A.Kamyu asarlari hamda F.Nisshe qarashlari ta'siri xususida munozaralar uchraydi. Shuningdek, T.Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romani bilan ham qiyosiy tahlil qilinadi. Yozuvchining o'zi esa "Go'ro'g'li" romani mohiyati jurnalxonlar hukmiga havola etilish "tarixi"ga to'xtalib: "O'zining tirikligini, mavjudligini isbot qilib berolmagan, insonning tirikligi va mavjudligini tan olmagan, insoniylik sha'ni va g'ururini xo'rlash va haqoratlash evaziga yashagan o'sha mustabid tuzumdan chiqariladigan kichik bir saboq bo'lib qolishi uchungina uni baribir e'lon qilishga jazm etdim," [3, 4]. – deya ta'kidlagan edi. Bu iqrorga tayanib, "Go'ro'g'li"romani adibning XX asrning 90-yillaridagi ijodiy kayfiyati, estetik qarashlariga xos belgilarni tashiydi, degan xulosaga kelish mumkin.

"Go'ro'g'li" romanida N. ismli kishi boshdan oxirgacha o'zining tirikligi, ongli inson ekanligiga butun ishxonasi, boringki, hatto o'z yashash joyidagi yaqinlari, qo'shnilariga ham buni isbotlay olmasligi, alal-oqibat o'z taqdirining fojia bilan tugashiga olib keladi. Bu asar qahramoni ism yo'qligi ham e'tiborini tortishi turgan gap. Bunga sabab bitta shaxs emas, balki butun jamiyat boshidan o'tkazishi mumkin bo'lgan holat ekanligi nazarda tutilgan desak muvofiq bo'lmaydi. Adib ijodidagi mazkur xususiyatga munosabat bildirar ekan, adabiyotshunos olim U.Normatov shunday ta'kidlaydi: "N.Eshonqulning bu tur hikoyalarida qahramonlarning nomi yo'q - ular faqat "U" yoki hayotda amali, kasb-hunari nomi bilan "Kotib", "Qorovul", "Me'mor" deb yuritiladi. Insonning ichki va tashqi qiyofasini chizishda anchagina tajriba orttirgan muallif bu xil personajlar tasviriga kelganda bir qarashda hafsalasizlik qilganday taassurot qoldiradi. Aslida esa shu xil "hafsalasizlik"dan muayyan maqsad bor" [2, 9].

Abdulla Qahhor ham o'zining "Bemor" hikoyasiga bergan ta'rifida "Bemor bemor emas, balkim butun jamiyat bemor" [1, 42]. - degan edi. Bu borada, J.Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasini ham keltirish mumkin. Mazkur asar qahramoni esa "odam" nomi bilan beriladi va birgina shaxs emas balki butun insoniyatning yashashga, hayotga bo'lgan muhabbatini ko'rsatib berishni nazarda tutadi.

E'tirof etish joizki, bu asarni bir o'qigandan uqish ancha qiyin. Dastlab kitobxon gap nima haqida ekanligini ilg'ashga qiynalib, kalavanning uchini yo'qotib, qayta o'qishga ehtiyoj sezadi. Negaki asardagi o'ziga xos tasvir va badiiy talqin kitobxonni o'ziga jalb qilib

hayotning mohiyati xususida kengroq mushohada yuritishga undaydi. Sodir bo‘layotgan ishlarda tayinli mantiqdan darak yo‘qligi, aksincha bu g‘ayritabiiylik tobora chuqurlashishi kishini mushohadaga va istehzolar mohiyatini anglashga chorlaydi. “Go‘ro‘g‘li” zalvorli modern roman. Shuning uchun kitobxon uni anglashi, asarda tasvirlangan davr voqeligi mohiyatini anglab yetishi lozim bo‘ladi.

“N. dahlizdagi odamlarning shovur-shuvuri bosilib, bir necha soniya jimlik cho‘kkanini sezdi. Uchta xodim ham juda noqulay vaziyatda qolgan, ustiga-ustak dahlizdagi odamlarning qabristonga borishga astoydil tayyorgarlik ko‘rishgani yuzlaridan shunday ko‘rinib turardi. N.ning o‘zi ham shuncha odamni qabristonga borishdan mahrum qilishni o‘ylab hijolat tortdi.

- Nima bo‘lganda ham hurmatli T. - dedi u hijolat bo‘lganini yashirmay. - Bu tadbirni to‘xtatish zarur, juda xijolatli ish bo‘libdi.
- Bu bizning qo‘limizdan kelmaydi, - dedi – o‘rtadagisi, -sizni ko‘mish ministrlk bilan kelishilgan. Ehtimol, ministrnig o‘zi ham qatnashar. Ahir ularga qanday qilib biz yanglishibmiz deymiz. Yo‘q, bu sira mumkin emas. Yonidagi ikki sherigi ham buni bir ovozdand tasdiqladi” [3, 13].

Hayotiy jarayondan uzulib qolgan N. birdaniga harakat va fikrdan to‘xtamaydi, biroq, u bora-bora insoniy ro‘shnolikdan darak bo‘lmagan bu diqqinapas, tuzsiz va fayzsiz hayotdan bezadi. Tirik odamni go‘rga tiqqan jamiyatga qasdma-qasd yashashda biror ma‘no ko‘rmaydi.

Hozirgi kunda ham mazkur roman bo‘yicha ko‘plab muammoli va bahsli munozaralar mavjud. Zero, ko‘pchilik bu asarni Kafkaning “Evrilish” hikoyasiga taqlid deb qaraydi. Bu ikkala asarni solishtirishda ahamiyat qaratish lozim bo‘lgan omillar mavjud. Xususan, Kafka hikoyalarining aksariyat qahramonlari o‘zlarini doim gunohkor his etishadi, ammo gunohi va qo‘rquvi sababini o‘zlari ham bilishmaydi, o‘quvchiga ham anglatishmaydi. Kafka Allohga ishonishni istagan, ammo uning borligini aqliga sig‘dirolmaydigan dahriy edi. Shuning uchun ham Allohning eng mukarram yaratig‘i bo‘lmish odamlarni astoydil sevolmas, ulardan ezgulik kelishiga ishonmasdi. Adib alohida olingan odamni suygani va ayagani holda butun insoniyatga ham, inson tomonidan o‘rnatilgan tartib-qoidalarga ham ishonchsizlik va nafrat bilan qarar, ulardan faqat yomonlik keladi deb hisoblar edi. U shu holatdan umr bo‘yi azob chekkan va tortayotgan azoblarini adabiy qahramonlariga ham o‘tkazgan yozuvchi.

Uning ijodida ham, XX asr adabiyoti taraqqiyotida ham uning “Evrilish” hikoyasi juda katta o‘rin tutadi. Hikoya qahramoni savdo korxonasi tinishqoq xizmatchisi, yaqinlariga juda mehribon Gregor Zamza kunlarning birida uyqudan qandaydir jirkanch hasharotga aylangan holda uygo‘nadi. Kafka bu voqea qanday bo‘lganini, nima uchun bo‘lganini tushuntirib ham, izohlab ham, o‘quvchini ishontirishga urinib ham o‘tirmaydi. Adib uchun muhimi, uning nima uchun va qanday qilib qirqoyoqqa aylangani emas, balki uning hasharotga aylangandan keyingi sezimlari, tuyg‘ularini ko‘rsatish edi. Yozuvchi kechagina ham otanasining, ham singlisining yolg‘iz tirtgagi bo‘lgan yigitning bedavo hasharotga aylangach, hech kimga kerak bo‘lmay qolganini tasvirlaydi. Kafka odamdagi oqibatsizlik, bemehrligni ko‘rsatish uchun ramzdan foydalanishda boshqa ijodkorlarga o‘xshamagan, aql bovar qilmaydigan ramz yaratadi. Yozuvchi insonning mutlaq behudud va intihosiz yolg‘izligini tasvirlamoqchi, uning ayanch ahvolini butun dahshati bilan ko‘rsatmoqchi bo‘lsa, odamni



qirgʻoyoqqa evriltirib qoya qoladi. U odamni biror toʻnka yoki oʻz vujudining bir bolagiga ham aylantirib qoʻyishi mumkin edi va bu bilan deyarli hech narsa oʻzgarmasdi.

Asarda Kafka odamlar orasidagi munosabatlar faqat manfaat uchungina ekanligini butun shafqatsiz realistik tarzda aks ettiradi. Hatto Gregorning onasi qirgʻoyoqqa aylanib qolgan yolgʻiz oʻgʻlini koʻrgisi kelmasligini tasvirlar ekan, insondagi oqibatsizlik chegara bilmasligini aks ettiradi: “Goʻyo, Gregorning oldida hech qanday toʻsiq yoʻqday, otasi unga yanada qattiqroq baqirdi. Keyin shovqin kuchayib, baqirayotgan faqat otasi emasligini, vaziyat battar ogʻirlashganini, payqagan Gregor, nima boʻlsa boʻldi deya, oʻzini eshikka urdi-yu, gavdasining bir tomoni koʻtarilib eshikda koʻndalang turib qoldi. Yarador biqinidan oq eshikka xunuk dogʻlar surkaldi. U eshikka qattiq tiqilib qoldi, yonboshidagi oyoqchalari havoda osilganicha zaif tipirchilar, pastdagilari esa polga qapishgan edi. Shu payt otasi uning ketidan zarb bilan tepdi, qonga belangan Gregor xonasiga uchib kirdi. Otasi eshikni hasa bilan yopdi. Nihoyat, sukunat tushdi” [3, 12].

Yigitning otasi esa, oʻgʻli haqida qaygʻurish u yoqda tursin, qirgʻoyoqni urib haydaydi, koʻziga koʻrinishini istamaydi. Necha oylar davomida biror marta eslab ham qoʻymaydi. Dastlabki vaqtlarda mehribonliklar koʻrsatgan, akasi boshiga tushgan dahshatli fojiani yengillatishga uringan singlisi Greta ham bora-bora uning xonasini tozalamaydigan boʻladi. Akasining ovqat yegan-yemagani bilan qiziqmay qoʻyadi. Xullas, boshiga mushkulot tushgan ojiz odam oʻzining eng yaqinlari tomonidan unutilishga, yolgʻizlikka, oʻlimga mahkum etiladi. Holbuki, Gregor sogʻlomligida yaqinlari uchun tinim bilmas, oʻshalarning halovati uchun oʻzini oʻtga-chogʻga urardi. Hikoya soʻngida qirgʻoyoqqa aylangan baxtsiz yigit odamlarning oqibatsizligi tufayli bu dunyoni tark etadi. Dahshatlisi shundaki, uning oʻlimi yaqinlarini qaygʻuga solmaydi, balki quvontiradi. Hatto ular shu hodisani oʻziga yarasha nishonlashadi ham.

“ – Qaranglar, u oʻlib qolibti! Xarom oʻlibdi qaranglar. Xizmatkor xotin jasad barmogʻini labiga bosdi va Gregor yotgan xona tomon ishora qildi. Bu ovozdanda choʻchib ketgan janob Zamza va Zamza xonim toʻshaklarida bir zum garangsib oʻtirshdi va keyinchalik bu qichqiriq mazmuniga tushundilar. Er-xotin karavotning ikki tomonidan sekin tusha boshladilar.

➤ Mana, endi, - dedi janob Zamza, - Xudoga shukr, desak boʻladi” [3, 16].

Shu munosabat bilan shahar tashqarisida, toza havoda bayram qilishadi. Hikoyadagi voqealar tasviri, ayniqsa, hasharotga evrilgan yigit oʻylari, iztiroblari, umidlari, iltijolari va nihoyat oʻlimi tasviri oʻquvchini larzaga soladi. Kafka odamni aql bovar qilmaydigan holatga soladi-da, uning asl mohiyatini kaftdagiday koʻrsatadi. Hatto aytish mumkinki, yozuvchi qahramonni emas, oʻz holatini tasvirlayotganday boʻladi. Shuning uchun ham roʻy bermaganligi, hatto roʻy berishi mumkin ham emasligi shundoqqina koʻrinib turgan voqealar tasviri kishini mulohazaaga chorlaydi.

N.Eshonqul ijodiga xos xususiyatlardan yana biri unda “Soʻzlar aslo jaranglamaydi, yaltiramaydi, shovqin-suron koʻtarmaydi. Ular maʼyus, mahzun, dardchil va dilgir suhbatdosh, sifatida hosil boʻladi. Ular hamisha odamni oʻylashga, oʻzini tanishga, oʻzligini anglashga va shu jarayonda oʻzligini ayon etishga undaydi. Shu taxlit ajib va sirli tafakkur hayotiga olib kiradi. Maʼnaviy-intellektual hayotidagi kechinmalar manzarasi bilan tanishtiradi. Fikrlarning rangi va maʼnosi ila oshno etadi. Ruhi, qalbi bor asar ana shunaqa joziba salohiyatga ega boʻladi. U adib qalbidan andoza olganligi boisdan ham ijodkor koʻnglining qayta tiklangan adabiy-badiiy koʻzgusi boʻlib qoladi” [4, 86].

Xulosa va takliflar (Conclusion\Recommendations). N.Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romani va Kafkaning “Evrilish” hikoyalaridagi mushtarak xususiyatlar biri sifatida insoniy qadriyatlar toptalishi, yolg‘izlik, bemehrlilik va oqibatsizlik kabi illatlarning qora ranglarda tasvirlanishini ta’kidlash mumkin. N.Eshonqul romanidagi qahramon asar yakuniga qadar o‘zining tirik ekanini isbotlash uchun kurashadi. Kafka asarida esa buni teskarisini ko‘rish mumkin. Chunki uning hayolida mavjudligi, yoki oila a’zolarining unga nisbatan e’tiborsizligi emas, balki, uyidagilarning keyingi hayoti haqida ko‘proq qayg‘urish hissi yuqoriroq edi. Hatto o‘z onasiga ham yuragini yorolmadi. Ikkala asarni solishtirar ekanmiz “Evrilish” hikoyasida boshdan oxirgacha o‘zini aybdor his etgan va to‘rt devoridan chiqib, hayoti uchun kurashmagan shaxsni ko‘rishimiz mumkin.

N.Eshonqul asarlari tahlilidan ayon bo‘ladiki, hozirgi kunda o‘zbek nasri inson shaxsining o‘ziga xos tuyg‘ularini, intim olamini tabiiyligicha, bor ziddiyatlari bilan haqqoniy tasvirlashga harakat qilmoqdalar. Bu esa o‘zbek adabiyotidagi insonni yangi jihatlardan anglash tamoyilining qaror topishini vujudga keltirdi. Ijodkorlar o‘z ruhiyatini taftish etib, o‘zligini anglashga intilgan qahramonlar hayot hodisalarini diqqat markazida tutgan holda ziddiyatli va murakkab insonlar obrazini yaratishga erishdilar. Shu ma’noda, insonni tasvirlash orqali insonni anglashning o‘ziga xos falsafasi ham o‘zining badiiy in’ikosini topayotir.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor. O‘tmishdan ertaklar. - T.: Yangi asr avlodi, 2017.
2. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. - T.: Ma’naviyat, 2000.
3. Nazar Eshonqul. Go‘ro‘g‘li. Roman. Sharq yulduzi, 2012.
4. Matyakupov S. Istiqloq davri o‘zbek adabiyotining nazariy masalalari (she’riyat va hikoyachilik) –T.: Tafakkur avlodi, 2020.